

Konteynerlarga ega bôlgan va/yoki konteynerlarsiz yuridik shaxslar bilan qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini kôrsatish bôyicha

SHARTNOMA №13/10

"11" январь 2022 у.

Nukus sh

«Taxtakupir tumani Sanitariya epidemiolop osoyishtalik va jamoat salomatligi bulimi» (keyingi ôrinlarda - "BUYURTMACHi") nomidan **T.Nurmanov** Ustav asosida xizmat koruvchi bir tomondan va **QR "Toza hudud" DUK** (keyingi ôrinlarda - "IJROChI") nomidan rahbari **O.Genjebaev** Ustav asosida ish koruvchi boshqa tomondan, birgalikda "Taraflar", alohida esa "Taraf" deb ataluvchilar ushbu shartnomani quyidagilar tôgrisida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ushbu shartnoma asosida "BUYURTMACHi" va "IJROChI" ôrtasida qattiq va/yoki suyuq chiqindilarni (QMCh), (SMCh) hamda xujalik suyuq chikindilarni (XSCh) yig'ish (tôplash) va olib ketish xizmatlarini kôrsatish bôyicha tôgridan-tôgri xôjalik aloqalar ôrnatiladi.

"BUYURTMACHi" ning topshirigiga kôra "IJROChI" («Toza hudud» DUK filiallari) qattiq chiqindilarni yig'ish (tôplash), olib ketishni 2 haftada bir marta 2 dona konteyner (quvvati 750 L 1, m3, 7 m3, 4 t. keragini yozish kerak) "BUYURTMACHi"ning manzili: **Doslik Guzari 48** dan olib ketish majburiyatini oladi."BUYURTMACHi" ôz navbatida «Yôl varaqasi»da yeki «Buyurtmashi»da (konteynerlarga ega bulgan yuridik shaxs) belgi quyib, natijalarini qabul qilish majburiyatini oladi.

"BUYURTMACHi"ning topshirigiga kôra "IJROChI" (QR «Toza hudud» DUK filiallari) _____ manzilda joylashgan ahlat yig'ish ôrnidan (AYÔ) qattiq va maishiy chiqindilarni yig'ish (tôplash) va olib ketishni ôz zimasiga oladi, va "BUYURTMACHi" (konteynerga ega bôlmagan yuridik shaxs) kôrsatilgan xizmatlar uchun haq tôlashni ôz zimasiga oladi.

"BUYURTMACHi" ning topshirigiga kôra "IJROChI" (QR «Toza xudud» DUK filiallari) "BUYURTMACHi" ning hududidan (manzili) **Doslik Guzari 48 ixtisoslashtirilgan transport** vositalari bilan qattiq maishiy chiqindilarni yig'ish (tôplash) va olib ketish xizmatini kôrsatish majburiyatini oladi va "BUYURTMACHi" ôz navbatida «Yôl varaqasi»da yoki «Buyurtmashi»da belgi qôyib, natijalarini qabul qilish majburiyatini oladi.

1.2. Umumiy tôplangan qattiq maishiy chiqindilar (QMCh) oyiga _____ m3da, **1 tonna**, yiliga _____ m3. tonnada hisoblanadi.

"IJROChI" (QR «Toza hudud» DUK filiallari) "BUYURTMACHi"ga alohida haq tôlash evaziga qôshimcha xizmatlar kôrsatishni talab qilishga haqli emas.

2.KÔRSATILGAN XIZMATLAR UCHUN HAQ TÔLASH TARTIBI

2.1. Shartnoma tuzish vaqtiga 1 m3 QMCh-ni olib ketish tarifi **52900** (eliw eki min togiz juz) sômni, tonna suyuq chiqindilarni olib kelish tarifi 65967 (alpis bes min togiz juz alpis jeti) sômni tashkil etadi.

2.2. Shartnomaga muvofiq umumiy kôrsatilgan xizmatlar haqqi miqdori **180 000** sômni tashkil etadi.

Qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish bôyicha xizmatlar kôrsatish tarifi ôzgartirilganda "IJROChI" (QR «Toza hudud» DUK filiallari) bu haqda ommaviy axborot vositalari orqali ularning kuchga kirishidan 15 kun oldin mâlum qiladi.

2.3. "BUYURTMACHi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.11.2018 yildan №5580-sonli farmonining "v" moddasi 2 bandiga muvofik qattiq va/yoki suyuq chiqindilarni olib ketish uchun taqdim etilgan xizmatlar qiymatining **100%** ini oldindan tôlab berishi lozim.

2.4. Qattiq maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlari uchun haq tûlash, tegishli davrlarda amaldagi qattiq maishiy chiqindilarni olib ketish tarifiga kôra amalga oshiriladi.

2.5. Yuridik manzil, korxonasi nomi, joriy hisobvaraği yoki QMChlarni olib ketish hajmi o'zgargan taqdirda tomonlar boshqa tomonni 10 kun ichida yozma ravishda xabardor qilishi shart.

2.6. Sifatsiz yoki belgilangan muddatdan ortiq uzilishlar bilan QMChlarini olib ketish bôyicha xizmatlar kôrsatilganda, xizmatlar uchun tûlov miğdori tegishli muddatga kamaytiriladi.

2.7. Xizmatlar sifatini baholashda, xizmatlar kórsatilmaganligini yoki sifatsiz xizmatlar kórsatilganligini tasdiqlovchi dalolatnoma tuziladi va "BUYURTMACHi" hamda "IJROChI" vakili tomonidan imzolanadi.

Xizmatlar kórsatilmaganligini yoki sifatsiz xizmatlar kórsatilganligi tug'risida dalolatnoma qattiq va/yoki suyuq chiqindilarni olib ketishda xizmatlar uchun tólov miqdorini qayta hisoblash uchun va "IJROChI" tomonidan óz majburiyatlarini buzganlik uchun tólashga asos boladi.

"IJROChI" "BUYURTMACHi" ning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga zarar yetkazsa, zarar yetkazilgan fakti qayd etilgan "IJROChI" va "BUYURTMACHi"ning vakillari tomonidan imzolangan dalolatnoma tuziladi.

Agar "IJROChI"ning vakili etib kelmasa, dalolatnomada "BUYURTMACHi" va fuqarolarning ózini ózi boshqarish organi vakilining imzosi kifoya.

"BUYURTMACHi"ning va "IJROChI"ning vakili imzosi mavjud bólsa, dalolatnoma yuridik kuchka ega boladi.

Agar "IJROChI"ning vakili dalolatnomaga imzo qóyishdan bosh tortsa, u holda mazkur dalolatnomani imzolashdan bosh tortish sabablarin kórsatib yozma tushuntirish berishi lozim. Aks holda, "BUYURTMACHi" sud qarori chiqarilgunga qadar QMChni olib ketish xizmatlari uchun pul tólashini tóxtatib turishga haqli.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. "IJROChI" shartnoma majburiyatlariga rioya etmaganlik uchun "BUYURTMACHi"ni javobgarlikka tortish choralarni kórishga, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan (jarima yoki penya) tólovni talab qilishga haqli. "IJROChI" qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bólishi mumkin.

3.2. Ijrochining majburiyatlari:

Belgilangan muddatlarda chiqindilarni olib ketishni amalga oshirish:

"BUYURTMACHi"ga qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlarini qonunchilikda va shartnomada belgilangan tartibda sifatli xizmatini kórsatish;

"BUYURTMACHi"ning sórovlarini qonun yoki shartnomada belgilangan muddatlarda bajarish;

Qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlari uchun elektron tóloviga shaxsiy hisob holatini Real vaqtda kuzatish tizimini joriy etish;

Qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish bóyicha xizmatlar tartibi va sifati bóyicha "BUYURTMACHi"ning shikoyatlari (arizalari, talablari, davolari)ning hisobini yuritish, va ijrosini tamiynlash;

"BUYURTMACHi" buyurtmasiga kóra qurilish chiqindilarini va agrotexnika ishlaridan keyin qolgan chiqindilarni olib ketish bóyicha qóshimcha haq tólangan holda qóshimcha transport xizmatini kórsatish.

Barcha chiqindi yig'ish punktlari (ChYP) va konteynerlar holati ustidan kuzatuv órnatish va ularning to'g'ri ishlatish holatini táminlash;

"BUYURTMACHi"ning talabiga binoan QMCh yig'ish uchun kerakli miqdordagi konteynerlar bilan táminlash;

Chiqindilarning ommaviy tóplanishiga va odamlarning hayoti, sog'lig'iga va atrof-muhit uchun xavfli bólgan bakteriyalar va boshqa zararli moddalarning rivojlanishiga qarshi kurashish uchun tizimli ish olib borish (konteynerlarni dezinfeksiya qilish yoki yuvish, axlat yig'ish nuqtalari va boshqalar.);

Hosil bólgan chiqindilarni xisob-kitobini yuritish;

Belgilangan tartibda saralangan maishiy chiqindilarni xom-ashyo qabul qilish uchun ixtisoslashtirilgan korxonalariga yetkazib berishni táminlash;

Qattiq va/yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish bóyicha tariflarda va xizmatlar taqdim yetish tartibidagi ózgarishlar haqida kuchga kirishidan 15 kun oldin ommaviy axborot vositalari orqali va "IJROChI"ning abonent punktlarida xabar reklamalarni osib qóyish orqali "BUYURTMACHi"ga xabar berish;

"BUYURTMACHi"ga taqdim etilayotgan xizmatlar sifatining buzilishini oldini olish va bartaraf yetish chora-tadbirlarini kórish;

Istemolchiga maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlari uchun tólovlarning holati haqida bepul málumot berish, shuningdek kórsatilgan xizmatlar uchun haq tólashda boqimandalik yóqligi haqida málumot berish;

SanPiN RUZ#0297-11 muvofiq konteynerlar dezinfeksiyasini amalga oshirish.

3.3. "BUYURTMACHi"ning huquqlari:

Mol-mulkiga zarar yetkazmasdan, uning hayoti va sog'ligi uchun xavfsiz, belgilangan sifatda, zarur hajmda xizmatlar olish;

"IJROChI" (KR «Toza xudud» DUK filiallari) aybi bilan xizmat ko'rsatishdagi kamchiliklarni o'z hisobidan bartaraf yetishni va (jarima yoki penya) to'lashni talab qilish;

"IJROChI"dan (KR «Toza xudud» DUK filiallari) qattiq va suyuq chiqindilarni olib ketish uchun xizmatlar hajmi va sifati, xizmatlar ko'rsatish shartlari, kommunal va to'lov uchun to'lov o'lchamlari haqida ma'lumot olish, shuningdek, elektron to'lov tizimi orqali qattiq va/yoki suyuq chiqindilarni olib chiqish xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirish va real vaqtda hisob holatini kuzatish.

Shartnoma majburiyatlari sifatsiz bajarilgan taqdirda yozma yoki telefon orqali "IJROChI"ga (KR «Toza xudud» DUK filiallari) shikoyat taqdim etish va "IJROChI"dan (QR «Toza hudud» DUK filiallari) sifatsiz xizmat ko'rsatilganligini tasdiqlovchi dalolatnoma tuzishni, va belgilangan vaqt oraligida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilish;

"IJROChI" (QR «Toza hudud» DUK filiallari) aybi bilan xizmat ko'rsatishdagi kamchiliklarni biypul bartaraf yetishni va shartnomada ko'rsatilgan miqdorda jarima to'lashni talab qilish;

Ishlab chiqarish faoliyati hujjatlar bilan tasdiqlangan holda vaqtincha to'xtatilib turilgan yoki xizmat ko'rsatmagan davri uchun qattiq va / yoki suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlar uchun to'lov majburiyatidan to'liq yoki qisman ozod qilinishi;

"IJROChI"(QR «Toza hudud» DUK filiallari) tomonidan o'z vaqtida shartnomada belgilangan vazifalarini amalga oshirmaganlik yoki sifatsiz xizmat kursatgani uchun sudga murojat etish va zararlarni qoplashni talab qilish;

Normativ-huquqiy hujjatlarda, qattiq va/yoki suyuq chiqindilarni olib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomasida nazarda tutilgan boshqada huquqlarni amalga oshirish;

3.4. "BUYURTMACHi" ning majburiyati:

Shartnoma shartlarini bajarish;

QMCh to'plash o'rinlarini moslashtirish va chiqindi to'plash konteynerlarini qurilish chiqindilari bilan to'ldirishni, katta-hajmda chiqindilarni yuklashni taqiqlash, shuningdek ularning chiqarilishini alohida shartnoma va to'lov asosida taminlash;

Sirtqi yorug'lashtirishni va chiqindilarni saqlash joyiga tosiqsiz kirishini taminlash hamda chiqindi saqlash joyining uzliksiz ishlashini kuzatib borish;

QMCh olib ketish jadvali va marshrut jadvali bajarilmagan barcha holatlarni nazoratga olish va bu haqida "IJROChI" (QR «Toza hudud» DUK filiallari)ni telefon orqali xabardor qilish: 99861 224 25 23 _;

"IJROChI" (QR «Toza hudud» DUK filiallari)ning bajarilgan ishlar tug'risidagi dalolatnomalarida o'z vakili imzosi va korxonaga muhri bilan ish xajmi bajarilganligini tasdiqlash;

Har oyning boshida o'tgan oy uchun bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnomalar tuzish;

O'tgan oy uchun bajarilgan ishlar dalolatnomalari asosida joriy oy oxiriga qadar har oyda rejalashtirilgan ish summasining 100% miqdorida oldindan to'lovni hisobga olgan holda "IJROChI" (QR «Toza hudud» DUK filiallari) hisob-raqamiga pul mablag'larini o'tkazish;

Konteynerlarda yig'ish tizimida - axlat yig'ish nuqtalarida qattiq chiqindilar turiga ko'ra chiqindilarni paketlarda tegishli konteynerlarga joylashtirish;

Chiqindi yig'ib utilizatsiya qilish uchun belgilanmagan joylarga ko'chaga, suv tarmoqlariga, ariqlarga, shuningdek harakatlanib kelayotgan transport vositalaridan yo'lga qattiq maishiy chiqindilarni tashlamaslik;

Poligonlardan tashqari hududda, hovlilarga, tomorqa yerlariga, bog'larga va boshqa joylarga qattiq maishiy chiqindilarni komilishiga yo'l qoymaslik.

4. SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI BAJARMAGANLIK YOKI NOTO'G'RI BAJARGANLIGI UCHUN TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. "BUYURTMACHi":

Shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaslik yoki tegishli tartibda bajarmaslik;

Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlar uchun o'z vaqtida to'lovni amalga oshirmaslik;

Qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni shartnoma shartlarida nazarda tutilgan qatdiy belgilangan joylarda toplash tartibini buzganlik uchun javobgar.

4.2. "IJROCHI":

Qattiq va suyuq chiqindilarni olib ketish xizmatini ko'rsatish muddatlarini buzganligi va xizmatlarni ko'rsatishdagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etmagani;

Xizmat ko'rsatish muddatlarini buzganligi va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etmaganligi uchun jarima o'z vaqtida tolanmagani;

O'z zimmasidagi qoriqlanadigan va qoriqlanmaydigan chiqindilarni yigish punktlaridagi konteynerlarning texnik holati;

Xizmat ko'rsatmaslik yoki sifatsiz ko'rsatilgan xizmati tufayli xodimlarning hayoti, sog'ligi va istemolchining mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun javobgar.

4.3. Taraflarning ushbu shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq qo'llaniladi.

4.4. Tolash taraflarni o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan va buzilishlarni bartaraf etishdan ozod qilmaydi.

5. SHARTNOMA MUDDATI

5.1. Taraflar shartnomani imzolagandan yoki Gaznachilikda ro'yxatdan o'tkan kundan boshlab xarakatga kiradi va amal qilish muddati "31"dekabr 2022 yilgacha.

5.2. Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ushbu bitim predmeti bilan bevosita bog'liq bo'lgan o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, tomonlar qo'shimcha shartnomalar tuzish yo'li bilan ushbu shartnomaga tegishli o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritadilar.

5.3. Shartnoma muddati tugashidan bir oy oldin tomonlardan birining uni rad etish yoki qayta ko'rib chiqish haqidagi murojaat kelib tushmasa, shartnoma kelgusi yilga uzaytirilgan bulib xisoblanadi.

5.4. Bu shartnoma teng yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuziladi.

6. NIZOLARNI HAL ETISH

6.1. Tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar, muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

Tadbirkorlik shartnomalarini tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot sudi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

TOMONLARNING HUQUQIY MANZILLARI:

"IJROCHI "

QR «Toza hudud» DUK

Nukus shaxri Berdax guzari r/u

X/R 2021 0000 4007 8129 7001

Bank: AK «Xalq bank»

INN: 304 937 594 MFO: 00638

OKED: 38110 Tel: 224-25-23

Binifist: INN 4990485752

/O.Genjbaev

Binifist: INN 4990485752

" BUYURTMACHI"

«Taxtakupir tumani Sanitariya epidemiolop
osoyishtalik va jamoat salomatligi bulimi»

Manzil: Doslik Guzari 48

Tel/Faks 99861-61 435 15 83

X/R 100022860352307074110054001

Bank: Markazi bank Toskent sn

MFO: 00014 INN 200 390 603

OKNX 91531

T. Nurmanov